INNOVATSIYA VA TARAQQIYOT
10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI

O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGIDA AYOL RUHIYATI BADIIY IFODASINING ILMIY-NAZARIY XUSUSIYATLARI

Otamuratova Muyiba O‘ktamovna,
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi o‘qituvchisi

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.19839347

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o‘zbek adabiyotshunosligida inson ruhiyatining badiiy asardagi talqini, uning adabiy jarayondagi o‘rni va ahamiyati borasida qator ilmiy-nazariy qarashlar yoritilgan. Shuningdek, badiiy psixologizm, lirik kechinma va ayol ruhiyati masalasining nazariy xususiyatlari talqin qilingan.*

Kalit so‘zlar: *shaxs, badiiy psixologizm, ruhiyat, kechinma, lirik qahramon, obraz, talqin.*

Аннотация. *В данной статье рассматривается ряд научных и теоретических взглядов на интерпретацию человеческой психики в произведении искусства, её роль и значение в литературном процессе в узбекской литературной критике. Также объясняются теоретические особенности художественного психологизма, лирического опыта и вопрос женской психики.*

Ключевые слова: *личность, художественный психологизм, психика, опыт, лирический герой, образ, интерпретация.*

Abstract. *This article illuminates a series of scientific and theoretical perspectives regarding the artistic interpretation of human psychology in Uzbek literary studies, as well as its role and significance in the literary process. Additionally, the theoretical characteristics of artistic psychologism, lyrical experience, and the issue of female psychology are analyzed.*

Keywords: *individual, artistic psychologism, psyche, experience, lyrical hero, image (character), interpretation.*

Kirish. O‘zbek adabiyotshunosligida inson ruhiyatining badiiy asardagi talqini, uning adabiy jarayondagi o‘rni va ahamiyati borasida qator ilmiy-nazariy qarashlar ilgari surilgan. Xususan, adabiy asar yaratish jarayonida inson ruhiyatining badiiy ifodasi muhim omil sifatida qaraladi. Bu holat “badiiy psixologizm” atamasi orqali tavsiflanadi. Badiiy psixologizm adib tasvirlagan qahramonning ichki dunyosi, o‘y-kechinmalari, ichki ziddiyatlari, psixologik holatlari va xatti-harakatlari orqali yuzaga chiqadi.

Adabiyotlar tahlili. O‘zbek adabiyotshunosligida psixologizm muammosi bo‘yicha olib borilgan dastlabki ilmiy tadqiqotlardan biri A.Alimuxamedovning “Abdulla Qahhor hikoyalarida psixologik tasvir” [2] nomli maqolasidir. Mazkur tadqiqot asosan o‘zbek hikoyachiligi doirasida psixologik tasvir vositalarini tahlil qilishga qaratilgan bo‘lib, bu yo‘nalishdagi ilk ilmiy izlanishlardan biri sifatida e’tirof etiladi. XX asrning 1960-yillariga kelib, psixologizm masalasiga bag‘ishlangan tadqiqotlar soni ortdi. Biroq bu davrga oid asarlarda psixologizm mustaqil muammo

sifatida emas, balki personajlarning xarakterini psixologik asoslangan holda ochib berish vositasi sifatida o‘rganilgan edi. Ya’ni asosiy e’tibor obrazlar tabiatining ichki mantiqiy izchilligi va ularning ruhiy holatini hayotiy tasvirlashga qaratilgan edi. 1970-yillarga kelib esa, o‘zbek adabiyotshunosligida badiiy psixologizm masalasi mustaqil ilmiy yo‘nalish sifatida shakllana boshladi. Ayniqsa, N.Shodiyevning “A.Qahhorning psixologik tahlil mahorati (“Sarob”, “Sinchalak” asarlari misolida)” [9] nomli nomzodlik dissertatsiyasi hamda M.Abdurahmonovaning “Abdulla Qodiriy ijodida psixologik tahlil mahorati” [1] nomli ilmiy tadqiqoti bu boradagi muhim qadamlar bo‘ldi. Ushbu ishlar badiiy psixologizmdan adabiy tahlil vositasi sifatida foydalanish imkoniyatlarini ochib berdi. Keyingi yillarda ushbu masalaga oid ilmiy izlanishlar davom etdi. Xususan, B.Sarimsoqov ham psixologizm muammosini yoritishga harakat qilib, bu boradagi qarashlarini ilmiy maqola doirasida ifoda etgan [7]. Bu esa o‘zbek adabiyotshunosligida psixologik tahlil va badiiy tafakkur uyg‘unligining nazariy asoslarini shakllantirishda muhim o‘rin tutdi.

Tadqiqot metodologiyasi. Badiiy psixologizm, ayniqsa, ayol obrazlari talqinida o‘ziga xos uslubiy-estetik xususiyat kasb etadi. Chunki ayol qahramonlarning ruhiyati ko‘pincha murakkab tuyg‘ular, ziddiyatli kechinmalar, sezgirlik va fidoyilik bilan uyg‘unlashgan holda tasvirlanadi. Shu bois, o‘zbek adabiyotida ayol psixologiyasini ochib berishda mualliflar badiiy psixologizm vositalaridan keng foydalanadilar. Ichki monolog, dialog, ong oqimi, tush tasvirlari, ramziy obrazlar va detallar orqali ayol qahramonning kechinmalari, orzu-armonlari, ijtimoiy bosim ostidagi holatlari yoritiladi. Bunday yondashuvlar o‘zbek adabiyotshunosligida badiiy psixologizmni tahlil qilish, ayniqsa, ayol obrazlari ruhiy olamini tahliliy-nazariy asosda o‘rganish zaruratini yuzaga keltiradi.

Tahlillar va natijalar. Badiiy asarda qahramon ruhiyatining nozik qatlamlarini aks ettirish orqali yozuvchilar jamiyatdagi siyosiy-ijtimoiy muhit, ma’naviy-axloqiy muammolarni ham ochib beradi. Shunday yozuvchilar borki, ularning asarlarini o‘qiganimizda, o‘sha asar qahramoni bilan qalban va ruhan birlashib ketamiz. Qahramonlarning ichki dunyosi, ruhiy kechinmalari bizning shaxsiy his-tuyg‘ularimizga ta’sir etadi: ular aziyat chekkanida biz ham iztirobga tushamiz, ular quvonganda esa biz ham birga xursand bo‘lamiz. O‘zbek adabiyotining yirik vakillari: Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor, Pirimqul Qodirov, Said Ahmad, O‘tkir Hoshimov kabi yozuvchilarning asarlari bunday psixologik ta’sir kuchiga ega bo‘lgan namunalar sirasiga kiradi. Buning asosiy sababi ularning badiiy asarlarida qahramonlarning ruhiy holatlarini jonli va ishonarli tarzda tasvirlay olishidir. Mazkur yozuvchilar badiiy psixologizm vositalaridan samarali foydalanib, o‘quvchini obrazlar dunyosiga kirib borishga undaydilar. Ayniqsa, ayol obrazining ruhiy olamini

badiiy talqin qilish orqali insoniy munosabatlar, oilaviy va ijtimoiy ziddiyatlar, shaxsiy kechinmalar singari murakkab holatlar yoritiladi. Bu esa adabiyotda ayol psixologiyasining tasviri nafaqat individual kechinmalarni, balki davr va jamiyat manzaralarini ham yoritishga xizmat qilishini ko‘rsatadi. Shu sababdan ayol ruhiyati badiiy talqinining o‘zbek adabiyotshunosligida shakllangan ilmiy-nazariy asoslarini o‘rganish dolzarb masalalardan biridir. Azal-azaldan badiiy adabiyot, haykaltaroshlik, rassomchilik, miniatyura, raqs, teatr, kino va boshqa turli san’at turlarida ayol obrazi markaziy o‘rinni egallaydi. Ayol siymosi nafaqat san’atning estetik timsoli sifatida, balki jamiyatdagi ijtimoiy-ma’naviy o‘zgarishlarning aks ettiruvchisi sifatida ham ko‘rsatiladi. Islom dini manbalarida ham ayol mavqeyi yuksak baholanganini ko‘rish mumkin. “Ayol va millat, yurt erki va ayol ozodligi – bular bir-biridan ajralmaydigan va mutlaqo ajratib bo‘lmaydigan tushunchalardir. Ayolni qullik va qaramlikka mahkum etgan jamiyat hech vaqt erkin jamiyat bo‘la olmaydi” [4]. Zero, Qur’oni Karimda ham ayollarga bag‘ishlangan suralardan biri “An-Niso” (Ayollar) deb nomlanib, ushbu suraning nozil qilinishi ayollarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, ularga nisbatan adolatsizlikning oldini olish zaruratidan dalolat beradi. Ma’lumki, XIX asr oxiri XX asr boshlarida ayol qismati og‘ir bo‘lgan. Shu bois ham ularning ozodligi, erki va hurligi yetakchi g‘oya va mavzulardan biriga aylangan. Bu jihat ayniqsa, Cho‘lpon she’riyatida yetakchi g‘oya va mavzulardan biriga aylangan. Shoirning “Sharq qizi”, “Men va boshqalar”, “Navro‘z kunida”, “Qiz qo‘shig‘i”, “Yer asiralari”, “Paranji”, “Kelinchak”, “Erkin singilga” singari she’rlari buning yorqin misolidir. Shuningdek, XX asrning G‘.G‘ulom, H.Olimjon, Oybek kabi zabardast adiblari she’riyatida ham ayol ozodligi masalasi yetakchi o‘rinlarda tasvirlangan. Inson ruhiyatining, ayniqsa ayol ruhiy olamining badiiy talqini – bu oddiy xarakter tasviri emas, balki ijodkorning hayotiy haqiqatni o‘ziga xos dunyoqarashi, estetik idroki va ruhiy sezgirligi orqali badiiy anglash jarayonidir. “Inson – adabiyotning tasvir predmeti ekan, insonning ruhiyatisiz uni yaxlit, bir butun holatda to‘liq tasavvur qilish mumkin emas. Demak, har qanday badiiy asarda, u qachon va qaysi janr, metodda yaratilgan bo‘lmasin, inson psixologiyasi u yoki bu tarzda aks etishi tabiiydir” [4], – deya e’tirof etadi adabiyotshunos olim H.Umurov. Aynan psixologik yondashuv orqali badiiy matnda voqea va hodisalar zamirida yashiringan inson qalbining eng nozik, chuqur qatlamlari badiiy tarzda ochib beriladi.

Qardosh xalqlar, rus va Sharq xalqlari adabiyoti doirasida olib borilgan tadqiqotlar ayol obrazining san’atdagi ifodasi bilan bog‘liq masalalarga alohida e’tibor qaratilganini ko‘rsatadi. O‘zbek adabiyotshunosligida ayol obrazining, xususan, ayol ruhiyatining badiiy talqini doimo dolzarb mavzulardan biri bo‘lib

kelgan. Ayol qalbi, ichki kechinmalari, psixologik holatlari, ijtimoiy muhit bilan o‘zaro munosabatlari badiiy matnlarda chuqur aks ettirilgan. Bu holat, ayniqsa, XX asr o‘zbek adabiyotida, ayniqsa, mustaqillik davri nasri va poeziya namunalari tahlilida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Ayol obrazining badiiy talqinida uning ichki dunyosini ochib berishga intilish o‘zbek adiblarining asarlarida tobora murakkab psixologik tasvir vositalari orqali ifodalangan. Bu esa adabiyotshunoslikda ayol ruhiyati masalasining nafaqat estetik, balki psixologik va ijtimoiy aspektda o‘rganilishini ham taqozo qiladi. Erkaklar va ayollar insoniyat sivilizatsiyasining tayanchi bo‘lib, har ikkisi jamiyat oldida o‘ziga xos vazifalarni bajaradi. Shubhasiz, jamiyat taraqqiyotida erkaklarning roli muhim sanaladi. Biroq insoniyat evolyutsiyasi, ijtimoiy rivojlanish hamda sog‘lom va barkamol avlodni voyaga yetkazish jarayonida ayollarning tutgan o‘rni ham erkaklarnikidan kam emas. Chunki ayol – jamiyatni tashkil etuvchi asosiy ijtimoiy birlik, ya’ni oilaning markazida turadi. Y.Eshmatova “Istiqlol davri o‘zbek qissachiligida ayol ruhiyatining badiiy talqini” nomli tadqiqot ishida shunday yozadi: “Ayollar obrazi hozirda turli fanlar va san’atning barcha turlarida (kino, teatr, haykaltaroshlik, rassomchilik, raqs, badiiy adabiyot, san’atshunoslik. psixologiya) muhim muammo sifatida o‘rganilmoqda” [6]. Bugungi adabiyotshunoslikda ayol obraziga bo‘lgan yondashuv yanada murakkab, zamonaviy nazariy qarashlar asosida shakllanmoqda. Ayollarning ruhiy holati, jamiyatdagi o‘rni, ularning ichki dunyosidagi ziddiyatlar, intilish va iztiroblar badiiy asarlarning asosiy estetik markaziga aylangan. Ayol obrazi nafaqat gender yondashuv, balki badiiy psixologizm doirasida ham tahlil qilinishi kerak bo‘lgan muhim ilmiy masalalardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Ma’lumki, hozirgi kungacha ayol obrazini tadqiq qilish bo‘yicha bir qancha olimlar o‘z tadqiqot ishlarini olib borishgan. Albatta, ularning tadqiqot yo‘nalishlari turli xil bo‘lsa ham tadqiqot obyektlarining o‘xshashliklari ularni bir biriga bog‘lab turadi. Xorijiy olimlardan E.Showalter, S.Fatemeh, N.Arvas, I.Ahmad, N.Mahnaz; MDH olimlaridan Yu.Efimova, K.Pakoyakova, O.Penzina, M.Firstova, A.Vahramova va yurtimiz olimlaridan N.Muhammedova, Y.Eshmatova, M.O‘razbayeva, F.Ismailova, H.Muhammedova, S.Usmonova, Sh.Choriyeva N.Ashurovalar ilmiy izlanishlar olib borgan. Adabiyotshunoslikda ayol ruhiyatini tadqiq etish har bir xalqning ma’naviyati va madaniyatini, milliy g‘oyalarini yaxshiroq bilishga xizmat qiladi. Chunki ayol obrazida o‘z ifodasini topgan ruhiy holatlar, hissiyotlar, jamiyat va oilaviy muhitga munosabat orqali muayyan xalqning an’analari, urf-odatlari, ma’naviy qadriyatlari badiiy timsollar vositasida yoritiladi. Ayol timsoli ko‘pincha ona, opa-singil, sevgi timsoli, sabr va fidoyilik ramzi sifatida talqin qilinadi. Bunday obrazlar orqali xalqning ayolga bo‘lgan munosabati, uni qanday qadrlashi yoki

jamiyatdagi o‘rni haqida muhim xulosalar chiqarish mumkin. Bu esa o‘z navbatida, adabiyotshunoslikda ayol obrazlarini o‘rganishni nafaqat badiiy, balki madaniy, falsafiy va ijtimoiy jarayonlar bilan uzviy bog‘liq muhim ilmiy yo‘nalishga aylantiradi. O‘zbek adabiyotida ayol ruhiyatining badiiy talqini nafaqat milliy madaniyatning, balki inson ruhiyatining murakkab qatlamlarini o‘rganishda muhim o‘rin tutadi. Ayol ruhiyati – uning ichki dunyosi, hissiyotlari, kechinmalari va qarashlari – badiiy matnda insoniylikning nozik, sezgir tomonlarini ochib berishda noyob vosita hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, ayol obrazining ilmiy-nazariy tahlili adabiyotshunoslikda yangi yondashuvlarni shakllantirishga, milliy va umumbashariy qadriyatlarni uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi.

O‘zbek adabiyotshunosligida ayol ruhiyatining badiiy talqinini o‘rganishga doir ilmiy-nazariy asoslar, avvalo, milliy adabiy tafakkurning o‘ziga xos xususiyatlari, tarixiy rivojlanish bosqichlari hamda zamonaviy ijtimoiy-ma’naviy jarayonlar bilan uzviy bog‘liq holda shakllanadi. Shu bilan birga, bu masala psixologik, feminist va antropologik nazariyalar bilan bog‘lanib, o‘zbek badiiy matnlarining chuqur tahlilini taqozo etadi. Ana shunday yondashuvlar orqali ayol obrazining ko‘p qirrali va murakkab tasviri yuzaga chiqadi. O‘zbek adabiyotida ayol ruhiyati badiiy talqinining ilmiy-nazariy asoslarini aniqlash, ularni tasniflash va zamonaviy adabiyotshunoslikda mavjud bo‘lgan qarashlar bilan solishtirish borasida qator ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Bu jarayonda adabiy asarlardagi ayol obrazlarining psixologik xususiyatlari, ijtimoiy-madaniy kontekst bilan bog‘liqligi hamda badiiy uslubi yoritiladi.

O‘zbek she’riyatida ayol ruhiyatining badiiy talqini tarixiy-estetik davrlar kesimida turlicha yo‘sinda namoyon bo‘lgan. Jadid adabiyotida bu obraz milliy uyg‘onish, ozodlik va ma’rifat g‘oyalari bilan uyg‘un holda tasvirlangan bo‘lsa, sovet davrida u ijtimoiy faollik, mehnatparvarlik va ideologik ruhda talqin etilgan. Mustaqillikdan keyingi davrda esa ayol siymosi tobora o‘zlikni anglash, hayotiy kurashlar va ruhiy iztiroblar nuqtayi nazaridan yoritilmoqda. Shuningdek, she’riyatda ruhiy holatlarning badiiy talqini ko‘pincha davr ruhi, ijtimoiy-madaniy muhit va shaxsning ong darajasi bilan chambarchas bog‘liq holda ifodalanadi. Bu esa lirik qahramon timsolida jamiyatda kechayotgan ma’naviy jarayonlarni, ijtimoiy muhit bosimi ostida shakllanuvchi ruhiy kechinmalarni estetik darajada ochib berish imkonini yaratadi. Demak, ayol ruhiyati tasvirining o‘zbek she’riyatidagi talqini – faqat badiiy yoki estetik masala bo‘lib qolmay, balki o‘zining murakkab psixologik va ijtimoiy zaminiga ega bo‘lgan ilmiy muammo sifatida namoyon bo‘ladi. O‘zbek adabiyotshunosligida psixologik tasvir, ya’ni ruhiy holatlarning badiiy in’ikosini o‘rganishga qariyb o‘ttiz yil muqaddam ilmiy e’tibor qaratila boshlandi. Ushbu yo‘nalishdagi dastlabki izlanishlar natijasida bir qator nomzodlik va doktorlik

dissertatsiyalari yaratilgan bo‘lib, ularda psixologik tasvir muammosining turli qirralari tahlil etilgan. Jumladan, o‘zbek romanlarida psixologizm muammosini o‘rganishga bag‘ishlangan B.Bekmurodov [4], A.Qahhor asarlaridagi ruhiy tahlil mahoratini yoritgan N.Shodiyev [9], A.Qodiriy ijodida psixologik tasvir masalasini tahlil qilgan M.Abdurahmonova [1], shuningdek, H.Umurov tomonidan psixologizm muammosining o‘zbek romanchiligidagi ifodasi [7] va B.Aliyevning hozirgi o‘zbek she’riyatida psixologik muammo masalasiga bag‘ishlangan tadqiqoti [3] mazkur yo‘nalishda amalga oshirilgan muhim ilmiy ishlar sirasiga kiradi. Ushbu tadqiqotlarda adabiy matnlardagi ruhiy kechinmalarni badiiy ifodalovchi vositalar – portret, peyzaj, dialog, ichki nutq kabi kompozitsion elementlarning ijodiy qo‘llanishi tahlil qilingan bo‘lib, ayniqsa nasrda lirik qahramonning ichki olami, ruhiy portreti va uning tasviriy ifodasiga alohida e’tibor qaratilgan. Biroq mavjud ilmiy izlanishlarning ko‘pchiligi, asosan, nasriy asarlar doirasida olib borilgan bo‘lib, she’riyatda psixologik tasvir masalasi izchil tadqiq etilmagan. Shu jihatdan olib qaralganda, B.Aliyevning hozirgi o‘zbek she’riyatidagi psixologik muammolarga bag‘ishlangan nomzodlik dissertatsiyasi ushbu mavzuning she’riy badiiy tafakkur doirasida ilk marta ilmiy yondashuv asosida o‘rganilgan muhim manba sifatida ajralib turadi.

Xulosa. O‘zbek she’riyatida ayol qalbining ruhiy kechinmalarini to‘laqonli va chinakam samimiyat bilan ifoda etgan eng yorqin adabiy namoyandalardan biri bu shoiralardir. Ularning ijodida ayol hayoti, onalik, muhabbat, fidoyilik, iztirob va orzu-armonlar o‘ziga xos estetik va ruhiy ifodasini topadi. Ayniqsa, ayol ruhiyatining nozik qatlamlarini badiiy shakllarda yoritishda shoiralarning hissasi beqiyosdir. Aynan zamonaviy o‘zbek shoiralari ijodida lirik qahramonning ichki holatlari, ruhiy kechinmalari teran yoritilgan bo‘lib, bu orqali o‘zbek she’riyatidagi psixologik ifoda imkoniyatlari, obraz va mazmun uyg‘unligi, poetik tafakkurning nozik qatlamlari ochib berilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Абдураҳмонова М. Абдулла Қодирий ижодида психологик тасвир маҳорати. Филол. фанл. номз. дисс. автореф... – Тошкент, 1977. – 32 б.
2. Алимухамедов А. Абдулла Қаҳҳор ҳикояларида психологик тасвир.// “Шарқ юлдузи”, 1947 й, 2-3 сонлар. – Б.115-137.
3. Алиев Б. Ҳозирги ўзбек шеъриятида психологик муаммо. Филол. фанл. номз. дисс. автореф... – Тошкент, 1994. – 70 б.
4. Бекмуродов Б. Ҳозирги ўзбек романларида психологизм муаммоси. Филол. фанл. номз. дисс. автореф… – Самарқанд, 1973. – 73 б.
5. Жумабоева Ж. XX аср ўзбек шеъриятида психологик тасвир. – Тошкент: “Фан”, 2004. – 334 б
6. Umarova F. B. Ingliz va o‘zbek nasrida ayol obrazining badiiy tasviri. // O‘zbekistonda xorijiy tillar, 2022. – № 3 (44). – B.155-166.

7. Умуров Ҳ. Психологизм муаммоси ва ўзбек романи. Филол. фанл. док. дисс. автореф… – Тошкент, 1983. – 85 б.
8. Саримсоқов Б. Достонларда психологик тасвирнинг характери хакида баъзи мулохазалар. – Тошкент, 1976. – 114 б.
9. Шодиев Н. Абдулла Қаҳҳорнинг психологик таҳлил маҳорати. Филол. фанл. номз. дисс. автореф... – Тошкент, 1973. – 75 б.